исчезновения, организациям, занимающиеся лечением раненых животных и возвращением их после восстановления в дикую природу, лесовосстановлением путем посадки новых деревьев и возрождением лесных массивов, а также очисткой водоемов и прибрежных зон от мусора, защитой морских экосистем и сохранением морских животных); экологическое образование (внедрение в образовательный процесс новых предметов и курсов таких, как экология, экологическая грамотность, рациональное использование природных ресурсов и ответственное потребление).

FINTECH XIZMATLARINING BANK TIZIMIDAGI RAQOBAT MUHITIGA TA'SIRI

Xidirov Nodir G'iyosaliyevich
TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kefedrasi professori, PhD
Jumanazarova Asaloy Bekzodovna
TDIU, "Moliya" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda fintech xizmatlarining bank tizimidagi raqobat muhitiga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy-nazariy hamda tahliliy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi, an'anaviy bank xizmatlarining yangilanishi, fintech kompaniyalarining moliya bozoriga kirib kelishi natijasida shakllanayotgan raqobat mexanizmlari hamda ularning moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Bundan tashqari, fintech sohasining rivojlanishi bilan bog'liq tartibga solish masalalari va ularning banklar faoliyatiga ta'siri yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Fintech,bank tizimi, raqobat muhiti, raqamli moliya, moliyaviy inklyuziya, innovatsiyalar, regulyatsiya.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalariga, ayniqsa moliya sektoriga jadal kirib bormoqda. Moliyaviy texnologiyalar (fintech) to'lovlar, kreditlash, sug'urta, investitsiya va pul o'tkazmalari kabi an'anaviy bank xizmatlarini tubdan o'zgartirib, moliyaviy xizmatlarni yanada qulay, tezkor va ommabop qilishga xizmat qilmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy va raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab keskin oshib, fintech rivojini yanada tezlashtirdi.

Fintech moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda, ya'ni aholi va biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda. Jahon bankining Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy hisobga ega bo'lgan katta yoshli aholi ulushi o'sishda davom etib, 2024-yil holatiga ko'ra dunyo bo'ylab taxminan 79 foizni tashkil etmoqda, bu esa moliyaviy inklyuzivlikning kengayayotganini ko'rsatadi[227]. Raqamli moliyaviy

[227] World Bank. The global Findex 2025. https://hdl.handle.net/10986/43438

xizmatlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, kichik biznes va kam ta'minlangan qatlamlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga yordam bermoqda.

Shu bilan birga, fintechning jadal rivoji bank tizimida raqobat muhitini kuchaytirib, moliyaviy barqarorlik, ma'lumotlar xavfsizligi va iste'molchilarni himoya qilish kabi masalalarni dolzarb qilib qo'ymoqda. 2018-yilda Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan Bali Fintech Agenda moliyaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, moliyaviy barqarorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Shu sababli fintech xizmatlarining bank tizimidagi raqobat muhitiga ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi[228].

So'nggi yillarda FinTech xizmatlari bank tizimida sezilarli o'zgarishlar kiritib, raqobatni kuchaytirdi. FinTech kompaniyalari filialsiz xizmat ko'rsatish imkonini yaratib, banklarni raqamlashtirishga majbur qildi va natijada moliyaviy xizmatlar tezroq, qulayroq hamda kengroq aholiga ochiq bo'ldi. Mobil to'lovlar va internet-banking, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarda, moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirdi. Kreditlash sohasida esa FinTech kompaniyalari algoritmlar va ma'lumotlar tahlili asosida mijozlarni baholab, peer-to-peer kreditlash orqali banklarni qisman chetlab o'tmoqda. Biroq banklar o'z mijozlari haqidagi ma'lumotlar ustunligiga tayanib, FinTech bilan hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda. Onlayn depozit xizmatlari va texnologik kompaniyalarning "depozitga o'xshash" mahsulotlari esa banklarning bozordagi mavqeini qisman zaiflashtirsa-da, ushbu raqobat bank xizmatlarining yanada takomillashuviga turtki bermoqda. Robo-advice va avtomatlashtirilgan investitsiya platformalari kichik hisoblar uchun arzon va qulay maslahat beradi. Banklar o'z katta mijozlar bazasi va xarajat afzalliklaridan foydalangan holda bu xizmatlarni raqobatbardosh qiladi. Shu tariqa, investitsiya xizmatlariga kirish kengaydi va raqobat kuchaydi.

FinTech banklarni siqib chiqarmaydi, aksincha, ular bir-birining kuchli tomonlarini to'ldirib, birgalikda yangi xizmatlar yaratmoqda. FinTech xizmatlari bank tizimidagi raqobatni kuchaytirdi va moliyaviy xizmatlarni tezroq, arzonroq hamda raqamli shaklga o'tkazdi. Banklar hali ham asosiy moliyaviy vositachilar bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, innovatsiya va raqobatga moslashishga majbur bo'lmoqda. Kelajakda FinTech va banklar o'rtasidagi raqobat va hamkorlikning davom etishi moliyaviy xizmatlar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Fintech xizmatlarining rivojlanishi bank tizimida sog'lom va faol raqobat muhitini shakllantirmoqda. Chunki, FinTech kimpaniyalari an'anaviy bank va kompaniyalardan farqli ravishda mijozlarga sezilarli darajada tez va qulay xizmat ko'rsatmoqda. Natijada, an'anaviy banklar ham ko'proq mijoz jalb qilish maqsadida o'z xizmat ko'rsatish sifatlarini oshirishga, jarayonni soddalashtirishga va mijozlarga ko'proq qulaylik yaratishga harakat qilmoqda. Bu esa raqobatni nafaqat foiz stavkalari va narx bilan, balki xizmat sifati va texnologik rivojlanish bilan belgilamoqda.

---

[228] World Bank (2020). Fintech and the Future of Finance. Available at: https://www.worldbank.org/en/publication/fintech-and-the-future-of-finance

An'anaviy banklar va FinTech kompaniyalari o'zaro raqobat bilan birga hamkorlikni ham yo'lga qo'yishi moliya tizimi rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shadi. Chunki an'anaviy banklarning tajribasi va FinTech kompaniyalarining innovatsion texnologiyalari birlashtirilsa, moliyaviy xizmatlar aholiga qulay va keng miqyosda yetib boradi. Shu bilan birga, FinTech sohasini samarali nazorat qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi: nazorat yetarli bo'lmasa moliyaviy xavflar ortadi, haddan ziyod nazorat esa innovatsiyalarni sekinlashtiradi. Shuning uchun davlat FinTech sohasini qo'llab-quvvatlash bilan birga, mijozlar manfaatlari va moliyaviy barqarorlikni himoya qiluvchi muvozanatli nazorat tizimini shakllantirishi zarur.

FinTech xizmatlari rivojlanishi bank tizimidagi raqobat muhitini tubdan o'zgartirmoqda va an'anaviy tijorat banklarini yangi sharoitlarga moslashishga majbur etmoqda. O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlari, mobil ilovalar va onlayn kreditlash platformalarining kengayishi moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirmoqda. Biroq, monopoliya, infratuzilma zaif tomonlari va malakali kadrlar yetishmasligi raqobat muhitining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Davlat tomonidan moliya tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish borasidagi izchil siyosat ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlamoqda. Mavjud to'siqlarni bartaraf etish orqali FinTech xizmatlari bank tizimi samaradorligi va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini sezilarli oshirishi mumkin.

RAQAMLI BANKLARNING O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMI RAQAMLASHUVIGA TA’SIRI

Xidirov Nodir G‘iyosaliyevich
TDIU, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kefedrasi professori, PhD
G‘ulomova Maxliyo Murodbek qizi
TDIU, “Moliya” fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot O‘zbekiston moliya tizimini raqamlashtirish jarayonida raqamli banklarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan raqamli banklarning innovatsion yechimlari, moliyaviy inklyuziya, xizmat sifati va operatsion samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan, xorijiy tajriba asosida esa rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari moliya tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: raqamli banklar, moliya tizimi, raqamlashtirish, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya, elektron to‘lovlar, raqamli transformatsiya.*

Moliya va bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank siyosati, asosiy stavka mexanizmi,